

**DEKEKTOLOGIYA FAN SIFATIDA RIVOJLANISHI VA UNING
TARMOQLARI.**

Ergasheva Gulshan Xuvaydillo qizi

Qarshi shahar Axborot Texnologiyalari va Menejment Universiteti, Axborot texnologiyalari va pedagogika fakulteti, Defektologiya yo'nalishi talabasi

gulshangulshana57@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Defektologiya fan sifatida rivojlanishi va uning tarmoqlari haqida bo'lib defektologiya fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar hamda defektologiyaning tarmoqlari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Defektologiya, Oligofreno pedagogika, Surdo pedagogika, Tiflo pedagogika, Logopediya, ilmiy salohiyat, jamiyat, integratsiya.

Insoniyat taraqqiyotini ilm marifatsiz mutloqo rivojlanmasligini jamiyat o'zgarishlaridan bilmoqdamiz. Jamiyatning rivojlanishi, axolining ilmiy salohiyati yuksalishi birgina ilm fanga, ilmiy tatqiqotga bevosita bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi. Insoniyat hayotining uyg'onish davrlarida ko'pgina ilmlar takomillashib bordiki bu o'zgarishlar natijasida bir qator fanlar vujudga kela boshladi. Inson azaldan bilishga bo'lgan qiziqishi uni ko'pgina ilmlarni o'rganishga, tatqiq etishga majbur etti.

XX- asrning boshlariga kelib jahonning ko'pgina davlatlarida Defektologiya va uning tarmoq fanlari, usha davrning olimlari tomonidan asta sekinlik bilan o'rganila boshladi. Buning sababi usha vahtlar ham jismoniy va aqliy nuqsonlari bo'lgan bolalarning borligi ularga ham ta'lim -tarbiya berish muammolari usha davr olimlarini qiziqtirib kelgan edi.

Defektologiyaning fan sifatida rivojlanishi 1967-yildan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining „Pedagogika va psixologiya— fakulteti qoshida „Oligofrenopedagogika— bo'limi tashkil etilishidan boshlandi va 1975- yillarda Qori Niyoziy nomidagi pedagogika ilmiy tekshirish institutida psixologiya bo'limi qoshida defektologiya bo'limi faoliyat boshladi. Faqat bu ikki oliygoxda ham ta'lim va tadqiqotlar, ilmiy tadqiqotlar, „Markaz” ning rejasi asosida va faqat rus tilida olib borildi. Chunki shu davrgacha o'zbek defektolog mutaxassislari yo'q edi. Nihoyat 1968-yilda bir guruh o'zbek yoshlari Moskva, Leningrad defektologiya institutlarida tahsil olib kelib, ilk o'zbek guruhlarini ochishga muvaffaq bo'ldilar.

O'zbekiston defektologlaridan G.B.Shoumarov, K.X.Mamedov, V.S.Rahmanovalar o'zbek defektologlarini tayyorlashda faol ishtirok etdilar.

1973-yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining boshlang'ich ta'lim fakulteti qoshida yana bitta yo'nalish, „Surdopedagogika— bo'limi ochildi va 1983-yilgacha faqat rus tilli mutaxassislari tayyorlandi. Shu davr mobaynida maxsus yo'nalishda malaka oshirish ham rivojlana boshladi. Bu davrda (sobiq Ushinskiy nomidagi) hozirgi A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish markaziy institutida maxsus maktablar bo'limi faoliyat olib bordi va unga uzoq muddat davomida N.A.Paletskeya rahbarlik qilib, maxsus ta'lim muassasalari pedagog

xodimlarining malakasini oshirishni rivojlantirib keldi. 1978-yillarga kelib deyarli barcha viloyatlarda maxsus ta'lim muassasalari ochilib, ular soni 50 dan oshdi va Maorif vazirligi qoshida maxsus maktab, maktab–internatlar bo'yicha Respublika metodika kabineti tashkil etildi. Bu Respublika metodika kabinetiga Respublikaning yetuk mutaxassislaridan S.H.Latipov, R.S.Shomahmudova, U.Y.Fayzievalar jalb etildi. 1975-yilda ilk bor o'zbek tilida maxsus maktablar uchun dasturlar yaratildi va O'zbekiston Respublikasi Maorif vazirligi (hozirgi kunda Xalq ta'limi vazirligi) tomonidan tasdiqlandi. 1983-yili 8 ta yo'nalish bo'yicha o'zbek tilida o'quv rejalar tuzildi va ular asosida dasturlar yaratilib chop etildi.

Shu yillar davomida o'zbek tilida talabalar uchun G'.B.Shoumarov, F.M.Po'latovalar tomonidan „Oligofrenopedagogika—, G'.B.Shoumarov va K.X.Mamedovlar tomonidan „Aqli zaif bolalar psixologiyasi—, „Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bola psixologiyasi“ o'quv qo'llanmalari yaratildi. Shu bilan bir qatorda maxsus darsliklar yaratish bo'yicha ilk mualliflar guruhi tuzilib, o'zbek tilida darsliklar yaratilishiga asos solindi. Mualliflar guruhiga Respublika maxsus maktab, maktab-internatlar metodika kabinetining mudiri S.H.Latipov va U.Y.Fayzievalar rahbarlik qildilar. Maxsus dasturlar, darsliklarni nashrga tavsiya etuvchi Ilmiy metodik kengashning defektologiya yo'nalishi bo'yicha bo'limi tashkil etildi va unga o'zbek defektolog olimi G'.B.Shoumarov tayinlandi. Mazkur ilmiy metodik kengashda 10 dan ziyod darslik qo'lyozmalari muhokama va ekspertizadan o'tkazilib nashrga tavsiya etildi. Lekin maxsus darsliklar va dasturlarni joylarda mahalliy tillarda chop etilishiga qarshi bo'lgan „Markaz“, SSSR Maorif ministrligi tomonidan darsliklarni chop etilishiga ruxsat berilmadi. Bu darsliklar faqat mustaqillikdan keyingina nashr etildi.

1984-yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida O'rta Osiyoda yagona, mustaqil „Defektologiya“ fakulteti ochildi va unda „Defektologiyaning klinik asoslari va surdopedagogika“, „Oligofrenopedagogika va logopediya“ kafedralari faoliyat olib borib, o'zbek mutaxassislarini tayyorlay boshladi. Bu fakultetda kadrlar tayyorlash bo'yicha S.S.Aytmetova, R.M.Qorieva, M.G.Mirzakarimova, O.S.Maymor, G'.B.Shoumarov, A.I.Sagatov, V.S.Rahmanovalar katta hissa qo'shdilar. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida „Defektologiyaning klinik asoslari va surdopedagogika“ kafedrasiga rahbarlik qilgan U.Y.Fayzieva qisqa muddat ichida o'zbek tilida surdopedagogika yo'nalishida mutaxassis kadrlar tayyorlash uchun o'quv rejalar, dasturlar, ma'ruza matnlarini tayyorlashga asos soldi.

Mustaqillik davrigacha maxsus ta'limning rivojlanishi asosan Markazga bog'langan bo'lganligi sababli defektologiya sohasining rivojlanib ketishi qiyin kechdi. Mustaqillik yillaridan so'ng maxsus pedagogikaning barcha tarmoqlari rivojlanishi uchun keng sharoitlar va imkoniyatlar ochildi. Bu imkoniyatlardan foydalanib, O'zbekistonlik olim va mutaxassislar tomonidan maxsus ta'lim muassasalari uchun o'zbek va rus tillarida darslik hamda o'quv qo'llanmalar yaratish va ularni chop etish borasida katta ishlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda 89 ta alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga



ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida alohida ta'limga muhtoj bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiya olmoqdalar.¹

Defektologiya-(lot. defectus-kamchilik, grekcha logos-ta'limot so'zlaridan) defektologiya. Jismoniy hamda psixik kamchiliklari bor bo'lgan bolalarning taraqqiyot qonuniyatlari, ularga ta'lim va tarbiya berish qonuniyatlari haqidagi fan. Anomal bolalarni o'rgatish metodlarini ishlab chiqish, ularning rivojlanishidagi kamchiliklarini kompensatsiya qilish yo'llari, vositalarini aniqlash, ta'lim va tarbiyaning umumiy asoslarini ishlab chiqish, anomal bolalarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish defektalogiyaning vazifalariga kiradi. Defektalogiyaning rivojlanish jarayonida quyidagi mustaqil sohalar vujudga keldi:surdopedagogika tiflopedadodika, oligofrenopedagogika, logopediya. Bu sohalar turli kategoriyadagi anomal (zaif eshituvchi, aqli zaif va nutqida kamchiliklari bor) bolalarga ta'lim -tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganadi.²

Oligofrenopedagogika defektalogiyaning bir bo'limi. Oligofreniya (grekcha oligos-oz, kam va phren-aql)- bosh miyaning organik buzulishi natijasida bilish faoliyatining turg'un buzulishi. Oligofreniya irsiy, tug'ma va gudaklikda ortirilgan kasallikdir. Oligofrenopedagogika faqat intellekt va fikrlashdagina emas,psixik funksiyalar(hotira, diqqat, nutq, emotsional-iroda doirasi va boshqalar) da ham nuqsonlar kuzatiladi. Oligofrenopedagogikaning idiyot, imbetsellik, debellik, darajalari mavjud.³ Oligofrenopedagogika asosiy maqsadi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarga ma'lum fan asoslariga oid bilim berish, korreksion – tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, mehnat faoliyatiga, kasb-hunarga, ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir.⁴ **Surdopedagogika** (lot surdus- kar va pedagogika) defektalogiya tarmog'i; gung-kar saqov, kar yoki zaif eshituvchi bolalarni tarbiyalash, o'qitish va ularga ma'lumot berish masalalarini ishlab chiqadi. Surdopedagogika - otolaringologiya, akustika, logopediya, umumiy va maxsus pedagogika, fiziologiya bilan uzviy bog'liqdir.⁵

Tiflopedagogika (grekcha typhlos –ko'r va pedagogika) defektalogiyaning ko'r, zaif ko'ruvchi bolalarni o'qitish, tarbiyalash, bilim berish hamda mehnatga tayyorlash, maxsus ta'lim tarbiya yo'llari orqali tuzatish, ularni o'rganish va nuqsonni oldini olish masalalari bilan shug'ullanuvchi sohasidir. Tiflo pedagogikaning eng muhim vazifasi bolalarda saqlanib qolgan ko'rish imkoniyatlaridan o'qish jarayonida to'g'ri foydalanish

¹ F.U.Qodirova, Sh.Z.Matupayeva, Sh.T.Shermuxamedova, B.Z.Fozilov, B.M.Abdullaev, Z.X.Xusnuddinova. MAXSUS PEDAGOGIKA ASOSLARI O'QUV QO'LLANMA .Chirchiq – 2022. 11-14- betlar.

² Л.Мўминова , М.Қахрамонова.Логопедия терминларининг русча-ўзбекча изоҳли лугати. Тошкент ўқитувчи-1988. 19bet

³ Л.Мўминова , М.Қахрамонова.Логопедия терминларининг русча-ўзбекча изоҳли лугати. Тошкент ўқитувчи-1988. 34-35 bet.

⁴ Maxsus Pedagogika(Darslik). Toshkent-2014.6-bet.

⁵ Л.Мўминова , М.Қахрамонова.Логопедия терминларининг русча-ўзбекча изоҳли лугати. Тошкент ўқитувчи-1988. 42- bet.

va uni rivojlantirish, ko'rish imkoniyatlarini saqlash uchun sharoit yaratish, texnika vositalarini qo'llashdan iborat.⁶

Logopediya bu nutq buzulishlar haqidagi maxsus ta'lim va tarbiya vositasida nutq buzulishlarini o'rganish, tuzatish va oldini olish xaqidagi pedagogik fandır. "Logopediya" termini grekcha logos (so'z, nutq), peydeo (tarbiyalayman, o'qitaman) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, tarjimada to'g'ri „nutqni tarbiyalash“ ma'nosini anglatadi. Logopediya fani optimizm va chuqur insonparvarlik bilan yo'g'rilgandır. U nutqida nuqsoni bor bolalarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib beradi.⁷ Nutqiy buzilishi bo'lgan bolalarning markaziy nerv tizimi faoliyatida funksional yoki organik chetlanishlar ko'zga tashlanadi. Miyaning organik zararlanishi sababli issiq, transportda yurish, arg'imchoqda ko'p vaqt tebranish bolalarga yomon ta'sir ko'rsatadi, boshlari og'riydi, ko'ngillari ozadi va boshlari aylanadi. Tez charchab qoladilar, qattiq ta'sirlanishlari, jahllari chiqish bilan ajralib turadilar. Ular emotsional barqaror emaslar, ularning kayfiyatlari tez o'zgaradi, serjahl, agressiv, bezovta bo'ladilar. Shuningdek, ularda sustlik va lanjlik kuzatiladi. Bunday bolalar tinch o'tira olmaydilar, butun dars davomida ishchanlik va diqqatini saqlab turish qiyin bo'ladi. Juda tez xafa bo'ladilar, gapga quloq solmaydilar. Tanaffusdan keyin darsda diqqatlarini jamlashlari qiyin bo'ladi. Odatda bunday bolalarda diqqat va xotira, ayniqsa, nutqiy xotiraning bo'shligi, yaxshi tushunmaslik holatlari kuzatiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshida logopedik punkt faoliyat yuritadi. Logopedik punkt vazifalari quyidagilardan iborat: Logopedik shoxobcha tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar: O'quvchilar bilan logopedik shoxobchada korreksion ishlar butun o'quv yili davomida individual va guruhli shaklda olib boriladi. Nutqi buzilganlik o'ta jiddiy bo'lsa o'qitish maxsus ta'lim muassasalarida olib boriladi. Bunda o'quvchi bilan davolash-sog'lomlashtirish va psixologik-pedagogik ishlarni birga olib borish nutqiy buzilishni tuzatishning muhim sharti hisoblanadi. Logopedik yordam ko'rsatish sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy ta'minlash tizimlarida ham amalga oshiriladi. Poliklinikalarda va psixonevrologik dispanserlarda logopedik kabinetlari mavjud bo'lib, bu yerda nutqida buzilishi bo'lgan bolalarga logopedik yordam ko'rsatiladi. Og'ir nutq buzilishi bo'lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan talim muassasalarida logopediya va ritmika korreksion mashg'ulotlari olib boriladi.⁸

Bugungi kunga kelib Defektologiya fani yanada rivojlanish bosqichiga ko'tarilib bormoqda. Buning sababi yer yuzi axolisining yildan-yilga ko'payib borishi nogironlarning ham tug'ulish ko'rsatkichlarida o'sish seziladiganini statistik ma'lumotlarda ko'ryabmiz. Shunday ekan jismoniy-ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarni

⁶ Л.Мўминова, М.Қахрамонова. Логопедия терминларининг русча-ўзбекча изоҳли лугати. Тошкент ўқитувчи-1988. 43 бет.

⁷ М.У. АЙУПОВА. ЛОГОПЕДИЯ. Toshkent-2007. 3- бет.

⁸ F.U.Qodirova, Sh.Z.Matupayeva, Sh.T.Shermuxamedova, B.Z.Fozilov, B.M.Abdullaev, Z.X.Xusnuddinova. MAXSUS PEDAGOGIKA ASOSLARI O'QUV QO'LLANMA .Chirchiq – 2022. 39-40- betlar.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

o'qitish, ularni inklyuziv jamiyatga qo'shish masalasi oldimizda dolzarb bo'lib bormoqda. Har bir pedagog Defektologiya va uning fan tarmoqlarini yahshi o'rganmog'i, fanning ilmiy yangiliklaridan habardor bo'lmog'i zarurdir. Shundagina Defektologiya fanini taraqqiyotini, uning ilmiy o'zgarishlarini ko'ra olamiz. Xulosa qilib aytganimizda Defektologiya fanining taraqqiyoti jismoniy nuqsonlari bo'lgan bolalarni kelgusida sifatli ta'lim olishiga, jamiyat bilan uyg'un integratsiya bo'lishiga amaliy jihatdan katta yordam beradi.

